

## Boshlang'ich sinf darslarini rivojlantiruvchi ta'lim asosida o'qitish metodikasini takomillashtirishning pedagogik asoslari

Bobomurodov Xusniddin Mengziyoyevich  
Termiz davlat pedagogika institutining 2-bosqich magstranti  
O'zbekiston Respublikasi  
Surxondaryo viloyati Termiz shahri.

**Annotatsiya:** Dars oldindan o'ylangan va uning rejasi tuzilgan bo'lsa, tabiatshunoslik darsiga bo'lgan ta'riflashgan talablarni amalga oshirish oson bo'ladi. O'qituvchi reja tuza turib, birinchidan, darsning asosiy maqsadini, uning tuzilishini, mazmunini ikkinchidan, tashkil qilinishi shakllarini belgilaydi.

**Kalit so'z:** pedagogik, qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish, boshlang'ich sinflar, Tabiatshunoslik darslari, dars tuzilishi.

**Аннотация:** Если урок продуман и спланирован заранее, реализовать описанные требования к уроку естествознания будет легче. При составлении плана учитель, во-первых, определяет основную цель урока, его структуру и содержание, во-вторых, формы его организации.

**Ключевые слова:** педагогика, поддержка и развитие, начальные классы, уроки естествознания, структура урока.

**Abstract:** If the lesson is thought out and planned in advance, it will be easier to implement the defined requirements for the science lesson. While making a plan, the teacher, firstly, determines the main purpose of the lesson, its structure and content, and secondly, the forms of its organization.

**Keyword:** pedagogy, support and development, primary classes, science lessons, lesson structure.

Rejalashtirishning maqsadga muvofiqligi darsni qismlarga to'g'ri ajratish bilan ta'minlanadi. Boshlang'ich sinf darslarini rivojlantiruvchi ta'lim asosida o'qitishni Nizom talablari asosida ta'lim-tarbiya jarayoniga o'qitishning zamonaviy va innovatsion pedagogik uslublarini hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy yetish orqali ta'lim sifatini oshirishda o'quvchilarning individual ijobiy xususiyatlarini aniqlash, qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish, ularning yuksak darajada ta'lim-tarbiya olishlari, ijodiy imkoniyatlarini shakllantirish va rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratib berish shakllantirish vazifasi fanning asosiy maqsadi bo'lib, bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilariga tarbiyalovchi ta'lim sistemasini tushunib

olish, tabiiy fanlarni o'qitish asoslarini, uning uchun xos bo'lgan shakl, metod va uslublarini, o'quvchilarning bilish faoliyatlariga rahbarlik qilishni o'rganib olishlariga yordam qilish kabi amaliy masalalarini o'z ichiga oladi [2].

Boshlang'ich sinf darslarini rivojlantiruvchi ta'lim asosida o'qitishning vazifalari qatoriga: o'quv fani sifatida tabiiy fanlar mazmunini aniqlash; o'qitishning metod va uslublarini tadqiq qilish (zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalariga alohida ye'tibor bergan holda); zarur o'quv jihozlarini ishlab chiqish kiradi.

Binobarin, boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishning asosiy shakli-darslariga qo'shimcha holda maktab amaliyotida o'qituvchining o'quvchilar bilan olib boriladigan o'quv ishlarining boshqa shakllari tarixan vujudga kelgan. Metodik jihatdan to'g'ri tashkil yetilgan o'qitish jarayonida shu o'qitishning barcha shakllari asosiy shakl-dars bilan o'zaro bog'liqdir. Ular tabiat haqidagi tushunchalarni, dunyoqarashni tafakkurni, amaliy ko'nikmalarni rivojlantiradi.[5]

Darsda har xil metodlarning qo'llanilishi yangi mavzuni to'liq va ravshan yoritishga imkon beradi, o'quvchilarni kamroq charchatadi, faolligini oshiradi. Tabiatshunoslik darslarida o'qituvchi barcha o'qitish metodlarini og'zaki, ko'rgazmali va amaliy metodlarni qo'llaydi. U o'simlik va hayvonlarni namoyish yetadi. Amaliy ishlarni bajarish yo'li bilan o'quvchilarni ayrim organizmlarning tashqi va ichki tuzilishi bilan tanishtiradi. Zamonaviy tabiiy fanlarni o'qitishning tashkiliy shakllarini anglab tanlanganligi, ya'ni umumsinf, guruh va individual mashg'ulotlarning oqilona uyg'unlashtirilganligi bilan xarakterlanadi.[8]

Agar dars oldindan o'ylangan va uning rejasi tuzilgan bo'lsa, tabiatshunoslik darsiga bo'lgan ta'riflashgan talablarni amalga oshirish oson bo'ladi. O'qituvchi reja tuza turib, birinchidan, darsning asosiy maqsadini, uning tuzilishini, mazmunini (o'quv materialini, metod va uslublarini, darsning har bir qismi uchun jihozlarni), ikkinchidan, tashkil qilinishi shakllarini (sinf bilan umumiy ish, o'quvchilarning guruhlarga bo'linib ishlashlari, har bir o'quvchining yakka ishlashini) belgilaydi. Rejalashtirishning maqsadga muvofiqligi darsni qismlarga to'g'ri ajratish bilan ta'minlanadi. Rejalashtirish dars tipini belgilovchi va didaktik maqsad bilan taqozo qilinadigan tuzilishga bog'liqdir. Tabiatshunoslik darslarining tiplari. Darsni quyidagi tuzilish qismlariga ajratish mumkin:

1. Tashkiliy qism.
2. Uy vazifasini tekshirish.
3. Yangi materialni bayon qilish.
4. O'quvchilarning mustaqil ishlashlari, yangi bilimlarini mustahkamlash, ularning o'zlashtirilishini tekshirish.

5. Dars materialini umumlashtirish.
6. Uyga vazifa berish.
7. Baholami sharhlash.

Dars tuzilishi dars mavzusi bo'yicha darslarning umumiy tizimida uning qanday o'rin yegallaganligiga bog'liq, ammo qanaqa bo'lishidan qat'i nazar har bir dars tashkiliy, mantiqiy, psixologi jihatdan yaxlit bo'lishi kerak. Metodik jihatdan to'g'ri tuzilgani darsda barcha tomonlar o'zaro bog'liqdir

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

- 1 O'zbekiston milliy ensiklopediya 8 T.: 2000. 801 b.
- 2 V. L. Popov. Invariant // Matematik ensiklopediya. - M.: Sovet ensiklopediyasi, 1979. - T. 2. - S. 526.
3. Berulava M.N. Integratsiya sodiraniya obrazovaniya/ M.N.Berulava. -M.: Pedagogika, Biysk: Nauch. -izd. sentr BiGPI, 1993. -113-115 s.
4. Berulava M.N. Teoreticheskie osnovy integratsii obrazovaniya/ M.N.Berulava. - M.: Sovershenstvo, 1998. -192 s.
5. Isaqulova N.J. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tarbiyaga oid tushunchalarni shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari. - Ped. fan. nom. dis. avtoreferati. - T.: 2006. - 20 B.
6. A Rahmatullayev, D Yoqubova, O Ergasheva "Boshlang'ich ta'lim tizimida integratsiyalashgan texnologiya" Termiz "Surxon-nashr" 2017 19-22b
7. Bezrukova V.S. Pedagogicheskaya integratsiya: suщnost, sostav, mexanizmy realizatsii V.S.Bezrukova Integratsionnye protsessy v pedagogicheskoy teorii i praktike: Sb.nauch.trudov. avtoref. Diss. kand. ped. nauk. Sverdlovsk: SGIPI, 1999. - 25 s.
8. Zaxlebniy A.N.Shkola i problema oхраны prirody. M.: Pedagogika, 1981. - 184 s.
9. Norbutayev Kh.B. The formation of ecological thought of pupils in teaching of biology in connection with natural sciences in the process of the lesson. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8 (3) Part II, 2020.-P. 134-138.